
RISHTONDA “20 MING TADBIRKOR – 500 MING MALAKALI MUTAXASSIS” DASTURI YUZASIDAN SEMINAR O‘TKAZILDI

Tumandagi “Chinor plyus” majmuasida bo‘lib o‘tgan seminarida sektor rahbarlari, tegishli tashkilotlar vakillari, hokim yordamchilari va tadbirkorlar ishtirok etishdi.

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 12 iyundagi PF 93-sonli Farmoniga asosan “20 ming tadbirkor – 500 ming malakali mutaxassis” dasturi amalga oshirilishi belgilangan.

Dastlab seminarida farmonning mazmun-mohiyati, tadbirkorlarga yaratiladigan shart-sharoitlar, imtiyoz va qulayliklar haqida keng tushunchalar berildi.

Shuningdek yig‘ilganlarga dasturda tadbirkorlarga imkoniyatlar yaratib berish orqali ijtimoiy himoya reyestriga kiritilgan fuqarolar bandligini ta’minlash, kasb-hunarga o‘rgatish va shu yo‘l bilan kambag‘allikni qisqartirish hamda bu boradagi islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish borasida ta’kidlab o‘tildi.

2023-08-18 08:45:46